

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

Кириш сўзи	6
1. Xolbekov Abdug‘ani KOLONIALIZMNING IJTIMOIIY QIYOFASI (TURKIY XALQLARNING ISTILO QILINISHI MISOLIDA).....	9
2. Убайдуллаева Раиса ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ.....	17
3. Сеитова Зухрагон ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ КРАСОТЫ В ПОЭЗИИ ПОЭТОВ-СУФИСТОВ.....	24
4. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SHFATI BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLAR TAHLILI.....	34
5. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA: DAVLATLARNING INTEGRATSIYA SIYOSATI (BUYUK BRITANIYA MISOLIDA).....	40
6. Ходжаев Собир ИНДЕКС АКТИВНОГО СТАРЕНИЯ И ЗАНЯТОСТЬ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	46
7. Абдувалиева Мумтозхон СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И БАРЬЕРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	55
8. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR MODERNIZATSIYALASHUVINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	66
9. To‘raxo‘jaeva Ra‘no AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI YUZAGA KELISHIDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O‘RNI.....	73
10. Nematova Dilfuza KAMBAG‘ALLIKNI O‘RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	78
11. Eshmanova Iroda TRENDS IN CHANGES IN THE NATIONAL MENTAL CHARACTERISTICS OF UZBEK YOUTH IN MIGRATION CONDITIONS.....	87
12. Teshayev Doniyor OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH BO‘YICHA MEDIATORLAR TAYYORLASH YO‘NALISHLARI.....	94
13. Pخomov Umrbek O‘ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI.....	100
14. Nurqulov Bunyod YOSHLAR SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	106
15. Qobilov Uchqun DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UYG‘UNLIGI.....	114

16. Izzatulloeva Kamilla IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF ANTI-CORRUPTION EFFORTS IN THE SOCIAL SPHERE OF UZBEKISTAN.....	120
17. Burxanov Xusniddin AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	128
18. Imomova Nozimaxon O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SUBYEKTLARI SA'I-HARAKATLARINING MOTIVATSION TAVSIFI.....	135


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Xolbekov Abdug'ani,

O'zbekiston Milliy universiteti
Sotsiologiya kafedrası professori, sos.f.d.
e-mail: a.kholbekov@nuu.uz

KOLONIALIZMNING IJTIMOYIY QIYOFASI (TURKIY XALQLARNING ISTILO QILINISHI MISOLIDA)

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16423435>

ANNOTATSIYA

O'z vaqtida imperialistik mamlakatlar yuritgan kolonial siyosat bugungi globallashtan dunyoning siyosiy jarayonlar tizimida o'z asoratlarini qoldirganligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Bunda globalizmning umumiy qonuniyatlari bilan birga, dunyo hamjamiyatini tashkil etuvchi turli jamiyatlar va xalqlarning o'ziga xos ijtimoiy va siyosiy ananalari ham o'z o'rniga ega. Mazkur maqolada Rossiya davlatchiligining shakllanishi va kengayib borishi tendensiyalari uning keyingi istilochilik va bosqinchilik harakatlari kontekstida ko'rib chiqilgan. Rus imperiyachiligining kelib chiqishi, uning sharqqa, xususan turkiy xalqlar hududlariga nisbatan amalga oshirgan harbiy-siyosiy, ijtimoiy va madaniy ekspansiyasi xususiyatlari ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kolonializm, siyosiy reallik, milliy davlatchilik, despotizm, istilochilik, absolyutizm, rus samoderjaviyesi, ekspansionizm, imperiya, inqilob.

Холбеков Абдугани,

Профессор кафедры Социологии
Национального университета Узбекистана,
доктор социологических наук
e-mail: a.kholbekov@nuu.uz

СОЦИАЛЬНОЕ ЛИЦО КОЛОНИАЛИЗМА (НА ПРИМЕРЕ ПОРАБОЩЕНИЯ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ)

АННОТАЦИЯ

В системе политических процессов глобализированного мира, наряду с общими законами функционируют и социально-политические традиции различных обществ и народов. В ходе колониальной политики, проводимой в свое время империалистическими странами, данные факторы оказали существенное влияние на социальную реальность. В данной статье раскрываются тенденции становления и расширения российской государственности, которые впоследствии привели к российскому империализму. По мнению автора, империалистическая политика российского государства сопровождалась военным, политическим, социальным и культурным экспансионизмом, который осуществлялось по отношению к Востоку, в частности к территориям, принадлежащим тюркским народам.

Ключевые слова: колониализм, социальная структура, политическая культура, политическая реальность, государство, деспотизм, абсолютизм, самодержавие, экспансионизм, колониализм, империя, революция.

Abdugani Kholbekov

Professor of the Department of Sociology
of the National University of Uzbekistan,
Doctor of Sociological Sciences
e-mail: a.kholbekov@nuu.uz

THE SOCIAL FACE OF COLONIALISM (ON THE EXAMPLE OF THE ENSLAVEMENT OF THE TURKIC PEOPLES)

ABSTRACT

In the system of political processes in the globalized world, along with general laws, socio-political traditions of various societies and people's function. In the course of the colonial policy pursued by the imperialist countries at the time, these factors had a significant impact on social reality. This article reveals the trends in the formation and expansion of Russian statehood, which subsequently led to Russian imperialism. According to the author, the imperialist policy of the Russian state was accompanied by military, political, social and cultural expansionism, which was carried out in relation to the East, in particular to the territories belonging to the Turkic peoples.

Keywords: colonialism, social structure, political culture, political reality, state, despotism, absolutism, autocracy, expansionism, colonialism, empire, revolution.

KIRISH

Oxirgi yillarda ilmiy jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda milliy taraqqiyot muammolari bilan birga, kolonializm, uning o'tmishi va hozirgi kundagi oqibatlarini faol muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Bazan bunday keng miqyosli bahslar mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar sohasida ham aks sado bermoqda. Shu manoda Rossiya siyosiy doiralari va ularga aloqador strukturalar, ularning tarixi va transformatsiyasi, shuningdek turkiy xalqlar taqdiridagi o'rni masalasi dolzarb ahamiyat kasb etishi tabiiy.

METODOLOGIYA

Muammo avvalo rus davlatchiligi tarixiga borib taqaladi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Rossiya tarixida markazlashgan davlat XV asr oxiridan tortib XVIII asrgacha bo'lgan davr davomida shakllangan. Xususan, XV asr oxirlarida shimoliy-sharqiy rus knyazliklari birlashishi Moskva knyazi Ivan III davrida ayniqsa faollashdi. Ivan III Moskva knyazligiga Novgorodni qo'shib olishdan (1478) to mo'g'ullardan ozod bo'lgungacha bo'lgan davrda (1480) "rus yerlarini yig'ish" siyosatini olib bordi. Bu Sharqiy Yevropada yangi siyosiy makon – Kiev Rusi qad ko'targanligini anglatib, 1443-yilda qulagan Vizantiya imperiyasidan keyingi paydo bo'lgan yangi siyosiy voqelik edi. "Moskva – uchinchi Rim" iborasi ham shu davrdan boshlab istemolga kira boshladi. Keskin agressivlik kasb etgan bu jarayon shu darajada tez yuz beradiki, Rus hududi keyinchalik XVI, XVII va XVIII asrlarda muttasil tarzda kengayib bordi.

ASOSIY QISM

Shundan keyingi voqealar rus davlatining agressiv mohiyatini to'liq yuzaga chiqardi: Qozon xonligining 1552-yilda, Astraxan xonligining 1556-yilda olinishi keyingi ulkan hudud – Sibirning olinishini boshlab berdi. Romanovlar dinastiyasining hokimiyatga kelishi bilan tajovuzkorona tashqi siyosati kuchayganiga qaramay, 1649-yilda krepostnoylik huquqining joriy qilinishi bilan rus despotizmi dahshatli tus oldi. Naqd 212 yil davom etgan krepostnoylik huquqi va xoloplikni Stepan Razin qo'zg'oloni (1667-1671) va Pugachev qo'zg'oloni (1773-1775) ham yengillashtira olmadi.

Rus davlatining hududi 1547-yilda 3 million kv.km ni tashkil etgan bo'lsa, XVII asrning oxirida 7 million kv.km ga, 1670-yilda 11 kv.km ga, 1722-yilda esa 14 kv.km ga yetdi. Boshqacha aytganda, ikki asr ham o'tmay, rus yerlari deyarli 3 baravarga kengaydi. Bu tarixiy dalil rus

davlatining geografik hududi matematik emas, geometrik progressiyada ortib borganligini anglatadi. Darhaqiqat, rus davlatchiligidagi birinchi podsho Ivan Grozniydan to uning oxirgi podshosi bo'lgan Petr I gacha, yani 1547-yildan 1721-yilgacha bo'lgan 175 yil ichida tinimsiz kengayib bordi [4, 21-42].

1689-yilda hokimiyat tepasiga Petr I siyosati tufayli rus absolyutizmi yanada kuchayib, mamlakat imperiya davriga kirdi (1721). Bu imperiya naq uch asr, to 'g'rirog'i 296 yil Yevroosiyo hududida hukm surdi, u "xalqlar turmasiga" aylandi va 1917-yilga kelibgina barbod bo'ldi. Albatta, uch yuz yillik imperiya xotirasi tumanday tez tarqalib ketmasligi tabiiydir. Shu manoda rus siyosatchilari toifasining sobiq SSSR qulab, Rossiya suveren davlatga aylangach ham sobiq imperiyani tiklash orzusiga ruju qo'yishini tushunish mumkin, ammo aslo oqlab bo'lmaydi.

Aytib o'tilgan tarixiy faktlar tarixiy jarayonlar fonida turkiy xalqlar taqdiriga tasir ko'rsatdi. Bu avvalo Sibir istilosida aniq namoyon bo'ldi. Sibir yerlari rus davlatining sharqdagi ulkan qo'shnisi bo'lib qolayotgan edi. Sibir xoni Kuchum ulkan sarkardalik iqtidoriga ega bo'lmaganligi sababli, bu kamchiligini ayyorlik bilan to'ldirar, rus podshosiga bo'ysunuvchi qabilalarga tez-tez hujumlar uyushtirib turar edi. Shu bilan birga, Sibir mo'ynaga boy bo'lib, bu rus savdogarlarining ishtahasini ochib yuborgan edi. Xususan, rus savdogarlari tabiiy boyliklarga ega bo'lib turgan o'lkalarga safarlari xavfsizligini taminlash maqsadida kazaklarni yollashga harakat qilardi. Savdogarlarning peshvolaridan bo'lgan Straganov va uning xamtovoqlari kazaklarning bosh atamani Yermakni o'z tomoniga og'dira oldiki, bu rus ekspansiyasining yangi to'lqinini keltirib chiqardi.

Yermak ekspeditsiyasi 1581-yil 1-sentyabrda yo'lga chiqdi. Uning oz sonli otryadi rasman Rossiyaning g'arbiy chegarasidan sharq tomonga yo'l olganidan bir yil o'tgach, Kuchum qo'shinlariga duch keldi. U birinchi zarbadoyq Tobol daryosi bo'yidagi qalani qo'lga kiritadi. Ruslar oz sonli bo'lsada, orqadan Ivan Grozniy jo'natgan kazak o'qchi qo'shini hisobiga kengayishga erishadi. Ammo oziq ovqat muammosiga duch kelgan bosqinchilarning holatidan foydalangan Kuchum qalana qamal qiladi. Qalani tez qo'lga kiritolmagach, u hiyla ishlatadi: uning qamaldagi qalaga yuborgan ikki askari, o'zlarini buxorolik savdogarlardan bo'lib, go'yoki Kuchum ularning Rossiya bilan savdo qilishlariga yo'l bermasdan, ularning karvonini asirda tutib turganligiga ishontirishga muvaffaq bo'lishadi. Yermak hiylaga laq tushib, yordamga chiqishi bilan Kuchum qo'qisdan hujum boshlaydi va ruslarni porakanda qiladi. Yermakning o'zi halok bo'ladi, ayrim tarixiy manbalarga ko'ra u daryoda g'arq bo'ladi.

Ammo, ruslarning talofati bu jangdagi mag'lubiyati bo'lib, urushdagi g'alabasini kechiktirdi, xolos. Chunki, bosqinchilarga ortdan yetib kelavergan yordamning keti uzilmasligi bois, Sibirning shundan keyingi istilosi shiddatli tarzda tez kechdi. Bu esa nafaqat Kuchumning yakuniy mag'lubiyatiga, balki tez orada rus shaharlarining paydo bo'lishi jarayonlarini ham boshlab berdi. Ularning dastlabkisi Tyumen shahri edi.

Yermakning bor-yo'g'i 840 kishi bilan boshlab bergan Sibir ekspansiyasining g'alabasi ortida, bir tomondan taraqqiyotda ortda qolayotgan turk-mo'g'ul xalqlarining tarixiy ojizligini ko'rsatsa, boshqa tomondan tobora kuchayib borayotgan rus davlatchiligining tajovuzkor siyosatining ifodasi edi. Bu siyosatning turkiy xalqlar taqdiriga tasiri bir asrdan sal ko'proq davr ichida Uraldan to Tinch okeanigacha bo'lgan hududlarning Rossiya tarkibiga qo'shib olinishida namoyon bo'ldi. Rus imperiyasi oldin kazaklar, so'ng ularning orqasidan ko'chib boruvchilar, mamurlar, ruhoniylar, hunarmandlar, savdogarlar yurishlari tufayli kengayib bordi. Yenisey qirg'izlari, daurlar va chukchalarning qarshiligini hisobga olmaganda, "rus salbchilari" deyarli jiddiy to'siqqa duch kelmadilar.

Tabiiyki, rus davlati sharqda tobora yangi yerlarni qo'lga kiritib borar ekan, o'zining ulkan makonga ega bo'layotganligini tobora his etar, o'z kolonial siyosatini Ural tog'laridan oshib o'tishiga harakatni boshladi. Aynan Yermak yurishlarida "Volga bo'ylari – Ural tog'lari – Sibir – Tinch okeani" vektori ko'zga tashlana boshladi. Bunda daryolar o'lkasi bo'lgan Sibir alohida o'rin tutishi tabiiy edi. Shu jihatdan rus kolonializmida Sibirning suv yo'llari katta ahamiyat kasb etdi. Ivan Grozniy boy savdogarlarga Uralda katta mulklarni taminlab berdiki, bu yangi yerlarga katta masshtabdagi ko'chib o'tishini tashkil etishga olib keldi. Bunda Stroganovlar kabi boy savdogarlar tomonidan qishloq xo'jaligidan tortib tuz yetishtirishgacha, baliq xo'jaligidan tortib to Uraldagi

foydali qazilma boyliklarni qazib olishgacha bo'lgan ishlarni rivojlantiribgina qolmay, mahalliy aholi bilan savdo munosabatlarini o'rnatishni ham amalga oshirdilar [8].

Stroganovlarning rus ekspansiyasining haqiqiy plasdarmiga aylanganligi shunda ham namoyon bo'ldiki, ular o'z yerlarini Sibir xoni Kuchumdan himoya qilish uchun kazaklar kuchidan foydalana oldilar. Ataman Yermak bilan tuzilgan kelishuv Kuchumning hududiga ko'chirishni ko'zlagan bo'lib, 1581-yildagi harbiy ekspeditsiya aslida Sibirning ichkarisiga yurish bo'lib chiqdi. Yermakning qo'shini Tagil yonida Uralni kesib o'tib, Yevropadan Osiyoga oyoq qo'ydi. Bir qancha janglardan so'ng Yermak 1582-yilda Irtish daryosi bo'yidagi Chuvash qo'ltig'ida yuz bergan uch kunlik jangda kuchum kuchlarini tor mor qila oldi. Kuchum chekinib, Yermak butun Sibir xonligini, jumladan xonlikning poytaxti Kashliqni ham bosib oldi. Lekin Kuchum kazaklarning katta talofat ko'rganligidan foydalanib, 1585-yilda kutilmaganda qarshi hujumga o'tdi va Yermakning deyarli butun otryadini yo'q qildi, Yermakni daryoga cho'ktirishga erishdi. Ammo, kazaklar Sibirdan chiqib ketishiga qaramay, uning ortida rus davlatining tobora ochko'zlashib borayotgan bosqinchi kuchlari turardi. Ruslar allaqachon Sibirning asosiy daryo yo'llarini o'rganib bo'lishgan edi. Bir necha yillar o'tmasdan, ular Yermak izlari bo'ylab kelib, bir necha yil ichida Sibirni qisqa muddatlarda zabt etishni davom ettirdilar.

XVII asrning o'rtalariga kelib, Rossiya Kamchatkaning sharqiy qismi va shimoliy qutb doirasidagi bir qancha hududlaridan tashqari, o'z chegaralarini ularning hozirgi holatiga yaqin bo'lgan darajada o'rnatadi. Kamchatkani istilo qilish XVIII asr boshlarida, arktikabo'ylari va Alyaskani o'rganish va o'ziga qaratish esa yana 30-40 yil o'tib amalga oshirildi. 1689-yilda sin imperiyasi va Rossiya o'rtasida Nerchin shartnomasi tuzildi, unga ko'ra butun Sibir Rossiyaga o'tdi. Oqibat shu bo'ldiki, Sibirning bosib olinishi keyingi hudud, yani O'rta Osiyoni istilo qilish uchun plasdarm yaratdi.

Shu tariqa ulkan Yevroosiyo meterigida ikki davlat - g'arbda rus davlati, sharqda esa xitoy davlatchiligi orasida va siquvida qolgan turkiy xalqlar tarixiy mag'lubiyatga uchradilar. Boshqa jihatdan, ulkan jug'rofiy kengliklarda erkin va emin ko'chib-siljib yurishga odatlangan turkiy xalqlardan doimo xavotirda bo'lgan bu ikki davlat o'z xavfsizligini nafaqat aks tajovuz bilan taminladilar, balki yuqorida rus davlatchiligi misolida ko'rganimiz kabi, o'z hududlarini ham kengaytirib bordilar.

Umumiy manoda olib qaraganda, Yevropa mamlakatlarining okeanorti ekspansiyasi oldin bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lgan sivilizatsiyalarning o'zaro to'qnashuvi, keyinchalik esa malum manoda muloqotini tashkil etdi [4]. Zero, bu Buyuk ipak yo'li orqali nafaqat tovarlar, balki g'oyalarning ham mintaqalararo almashinuvining malum muddat uzilib qolishining buyuk geografik kashfiyotlar natijasida dengiz yo'llari orqali savdo va o'zaro almashish vositasida qayta tiklanishidan o'zga narsa emas edi. Ammo, Yevropa mamlakatlarining sanoatdagi kuchayishi va okeanlararo aloqalarning yangi bosqichi imperializm davri boshlanganligini ham bildirar edi. Bu esa metropoliyalar, yani kolonial imperiyalarning o'z koloniyalari ustidan nazorat o'rnatib, savdo-sotiqni va arzon ishchi kuchini haddan ortiq ekspluatatsiyasini keltirib chiqardi [1].

Rossiya o'z istilolarini dengiz yo'llari orqali emas, yangi hududlardagi daryo yo'llari va quruqlikdagi yo'llardan foydalandi. Uning o'z hududlarini zo'rlik bilan kengaytirishi Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Fransiya, Angliya, Belgiya kabi o'chko'z imperiyachi davlatlari amalga oshirilgan imperialistik siyosat natijasida Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Afrika va Argentinada tub aholi o'zlarining asl va qadimiy yerlaridan qanday judo qilingan bo'lsa, turkiy xalqlar ham o'z qadrdon makonlaridan haydab chiqarildilar, aksariyat hollarda ularning soni qisqarib, mazlum kamchilikka aylandilar. Rossiya imperializmi buning ustiga, bevosita hududiy yaqinligi tufayli qo'shimcha tasir ko'rsatishga ham ega bo'ldi. Boshqacha aytganda, mustamlakachilik bilan birga, yangi istilo qilingan hududlarga rus jamiyatiga xos xususiyatlar ham kirib keldi.

Yuqorida bayon qilingan voqealar tarixiy-geografik jihatga ega. Ammo uning ijtimoiy aspekti alohida ahamiyatga ega. Zero, aynan shu jihat rus kolonializmining ijtimoiy qiyofasini namoyon qiladi. Jahon tarixida kamdan-kam yuz beradigan bu kabi mislsiz jarayonning ijtimoiy qiyofasini qanday tasvirlash mumkin?

Birinchidan, Rossiya siyosiy hayoti o'ziga xos xususiyatlari va an'analari bilan ajralib turishini aytib o'tish o'rinlidir. Shuni avval boshdan takidlab o'tish kerakki, istilochilik harakatlarining boshida rus aristokratiyasi va rahbarlik rutbasidagi hukmron doiralarning faoliyati, aniqrog'i uning siyosiy fel'-atvori turardi. Quyida biz ularga to'xtalib o'tamiz.

I. Rus davlatchiligi siyosiy jihatdan olganda o'zining dastlabki geografik makonida avval, keyinchalik monarxiya bo'lib, uning borgan sayin ulkan qiyofa kasb etish barobarida bir necha dinastiyalar (Ryuriklar, Shuyskiylar, Godunovlar, Romanovlar) almashgan edi. Votchina (ruscha "otchina" so'zidan olingan) - ota mulki, nasliy feodal yer egaligi bo'lib, u G'arbiy Yevropaning ko'pchilik mamlakatlarida yer egaligining asosiy shakli bo'lgan. Votchina shakllanishi hokimiyat atributlari, shuningdek sud, ma'muriyat tizimining o'zgarib borishi bilan kechgan. Rossiyada votchina g'arb mamlakatlaridan farqli ravishda, xoloplarga egalikni ham o'z ichiga olgan.

G'arb mamlakatlaridan farqli o'laroq, rus jamiyatining siyosiy hayotida rus jamoaviyligi (община) an'analari bo'lgan bo'lsada, ammo parlamentarizm biqiq holatda edi. Xususan, Novgorod vechesi o'z xususiyatiga ko'ra, rus xalqining osiyocha xarakterini ham o'z ichiga olgan edi: vecheda kim balandroq ovozda baqirib gapirsa, shu kishi ko'pincha haq hisoblangan (shu o'rinda aytish mumkinki, rossiyalik sobiq siyosatchi Jirinovskiy yirik siyosiy yig'inlarda, xususan Duma majlislarida bazan baqirib gapirishi odati ana shu tarixiy ildizga ega siyosiy an'ananing o'ziga xos aks-sadosi bo'lib tuyuladi).

Rossiya tarixida "Zemskiy sobor" deb nomlangan siyosiy institut ham mavjud bo'lganligini ham aytib o'tish lozim. U asosan uchta kuchlar vakillarining yig'ilishidan iborat bo'lgan: boyarlar Dumasi; "muqaddaslashtirilgan sobor", yani oliy ruhoniylar yig'ilishi; ijtimoiy tabaqalar, asosan dvoryanlar, savdogarlar (ular rus yerlarining kengayib borayotgan katta hududlari bo'ylab, asosan daryolar uzra kema va qayiqlarda harakatlangan), vaqti-vaqti bilan shaharliklar, bunda ham shahar aholisining savdo-sanoat qismi aholisi, kam hollarda dehqonlar va kazaklar vakillari. Zemskiy sobor tabaqaviy vakillik organi bo'lib, aslida tobora kengayib borayotgan rus davlatining podshosi (sar) muhim siyosiy muammolarni muhokama qilish va qonunlar qabul qilish vaji bilan chaqirilib turilgan.

Aslida Zemskiy sobor deganda, hali yosh bo'lgan, ammo 14 yillik rengentlik davridan chiqib, hukmronlik qila boshlagan Ivan IV tomonidan chaqirilgan 1549 yildagi sobor nazarda tutiladi. Uning maqsadi sifatida zemshina va boyarlar o'rtasidagi kelishuvga erishish deb ovoza qilingan va u shu ma'noda "kelishuv Sobori" ham deyilgan. Zemshina (ruscha "zemlya", yani yer so'zidan olingan) - rus davlatining asosiy hududini anglatar edi. U barcha ijtimoiy tabaqalarning terma manosi ham edi.

Gap shundaki, zemshinani boshqarish Boyarlar dumasi tomonidan amalga oshiriladi edi. Undan sal oldinroq yosh podsho xalq qo'zg'olonlarini ham boshdan kechirgan ediki, hali kuch ishlatish hadisini olib ulgurmagan tajribasiz rus podshosi maslahatlarga muhtoj edi.

Feodal mulkni davlat foydasiga markazlashtirishni maqsad qilgan Ivan Grozniy 1565-1572-yillarda oprichnina siyosatini yuritdi. Oprichnina (qadimgi rus tilidagi "oprich", yani alohida degan manoga ega bo'lgan) - rus davlati podshosi Ivan Grozniyning shaxsiy ulushi bo'lib, u qo'shin va boshqaruv apparati joylashgan alohida davlat hududi hisoblangan. Oprichnina asosan favqulodda repressiv choralar bilan boyarlar tasirini kamaytirishga qaratilgan edi. Oprichninaning tepasida shaxsan podshoning o'zi turardi.

Demakki, Rossiyaning birinchi podshosi Ivan IV Grozniy aslida birinchi Soborni o'z hokimiyatini mustahkamlab olish, asosan kengaya boshlagan rus yerlari va boyarlarni kelishtirish, shu bilan birga tahlikada turgan xalqqa adolatli sud va ishonchli mudofaani vada qilib, vaqtdan yutish uchun o'z tarafdorlarining maslahatlari bilan chaqirgan edi. Rus davlatchiligidagi favqulodda choralar ko'rish, bunda o'zgalarga, avvalo muxolifatga nisbatan kuch ishlatishdan tortib siyosiy bosim o'tkazishgacha bo'lgan noqonuniy choralarni ko'rish, zarur bo'lsa jismoniy jihatdan yo'qotish an'analari aynan Ivan Grozniy davridan boshlanganligini shundan ham ko'rsa bo'ladi.

Zemskiy sobor 1549-yildan 1684-yilgacha, yani deyarli 135 yil amal qilgan, jami 60 marta chaqirilgan. Uni keyinchalik Boris Godunov tarqatib yuborgan edi (unda yosh Ivan Grozniydan farqli ravishda podsho qoni bo'lmasada, aqlli va tajribali siyosatchi bo'lganligi bois, ortiqcha maslahatchi vakillarga ehtiyoji bo'lmagan). Tarixiy fakt sifatida shuni aytib o'tish lozimki, 1598-yilda Zemskiy

sobor Moskvada Boris Godunovni, keyinchalik qayta tiklanib, 1613-yilda Romanovlar dinastiyasini boshlab bergan Mixail Fedorovich Romanovni ham rus podshosi etib saylagan edi.

Ammo, keyingi voqealar hokimiyatni yakka tarzda qo‘lga olish, yani “samoderjavie” (“yedinoderjavie”) deb nomlangan, tom manoda podsholik hokimiyatini mustahkamlash bilan bog‘liq jarayonlar yuz berdi. Rossiya uzoq vaqtga parlamentarizm an‘analaridan mahrum bo‘ldi. Shu tufayli haqiqiy manodagi parlament instituti shakllanishga ulgurmay, qisqa davr ichida yo‘qolib ketdi. Aslida Zemskiy sobor rus tarixidagi siyosiy institut sifatida yevropa mamlakatlaridagi parlamentlardan farq qilar edi, chunki u mahalliy ijtimoiy tabaqalar yig‘ilishlariga tayanib emas, yuqoridan turib chaqirilar edi. Bundan tashqari, Zemskiy sobor g‘arb mamlakatlaridan farqli o‘laroq, hokimiyatni markazlashtirishga xizmat qilmagan, buni vazifani samoderjaviening o‘zi uddalagan. Qolaversa, u davlat boshlig‘iga nisbatan hech qachon muxolifat bo‘lmagan. Rossiya tarixida muxolifat doimo vaziyat va tor manfaatdnlarni ko‘zlagan ayrim odamlar, asosan saroy atrofidagi shaxslarga bog‘liq bo‘lib kelgan. Umumiy manoda u yakkaboshqaruvchi podshoning boshqaruv tizimini mustahkamlovchi vosita edi, xolos [5].

II. Har qanday jamiyatning siyosiy tarixi va zamonaviy siyosiy hayoti uning ijtimoiy tuzilmasida aks etadi [10]. Rossiya jamiyati ham bundan istisno emas. Shu bilan birga, Rossiya jamiyati tarixan o‘ziga xos ijtimoiy tuzilmaga ega bo‘lib kelganligini aytib o‘tish lozim.

Qadimgi rus davlatchiligida aholi yuqori va past tabaqalarga bo‘lingan bo‘lib, birinchisiga knyazlar, ruhoniylar vakillari, boyarlar va drujinniklar mansub edi. Rus ijtimoiy-siyosiy tarixida boyarlarning o‘rni alohida bo‘lgan. Boyarlar tarixan urug‘-qabila zadagonlari, harbiy otryadlar (katta drujinniklar rus knyazlarining maslahatchisi, kichik drujinniklar esa asosan harbiy yurishlar uyushtiruvchi jangchilar bo‘lishgan) oqsoqollari, yirik yer egalari sifatida oliy feodal tabaqa bo‘lib, Rossiya tarixida, ayniqsa rus jamiyatining ijtimoiy tizimida, demakki, siyosiy hayotida IX-XVII asrlarda hukmron mavqega ega tabaqa sifatida katta rol o‘ynagan. Ayrim bahsli mulohazalarga ko‘ra, “boyar” atamasi turk dunay-bulg‘or tilidagi “bolyarin” so‘zidan kelib chiqib, boy odam mazmuniga ega bo‘lgan, so‘ngra slavyanlashgan.

Boyarlardan yuqori mavqega faqatgina knyazlar (alohida knyazlikdagi hukmdor) ega bo‘lishgan. Dastlab knyazlar qabila boshlig‘i, harbiy jamoa rahbari bo‘lishgan, ular saylangan, keyinchalik esa nasliy mavqe kasb eta boshlagan. O‘rta asrlarda, xususan Rus ustidan mo‘g‘ullar hukmronligi davrida xonlar tomonidan knyazlik mavqei belgilab berilgan. Xususan, O‘zbekxon tomonidan mitropolit Petr ga yorliq berilgan bo‘lib, unda knyazlik darajalari (ulug‘, o‘rta va quyi) belgilab berilgan.

Keyinchalik dvoryanlar yuqori mavqega ko‘tarila boshlagan. Farq shunda ediki, agar boyarlar votchinalarga egalik qilgan bo‘lsa, oldinlari boyarlar va knyazlar xizmatida bo‘lgan, XII asrdan boshlab esa ijtimoiy tabaqa tarzida shakllangan dvoryanlar (“dvor”, yani knyaz hovlisidagi odam manosida, knyazlar ularni o‘z topshiriqlari ijrosi uchun yollaganlar) esa odatda o‘z xizmatlari evaziga mulkka ega bo‘lganlar. XIV asrdan boshlab buyuk knyazlardan o‘z xizmatlari uchun yer ola boshlagan dvoryanlar Petr I ning 1714-yildagi farmoni bilan o‘z yerlarini bir umrga va nasliy egaligiga erishganlar. Bundan tashqari, boyarlar asosan harbiy aristokratiya vakillari bo‘lib, o‘zlarining podsho huzuridagi kengashiga va boshqa ayrim alohida imtiyozlardan foydalanishgan bo‘lsa, dvoryanlar o‘z xizmatlari natijalariga tayanishgan. Shu manoda dvoryanlar taraqqiyparvar tabaqa bo‘lishgan.

Aholining quyi tabaqalari asosan uch turga mansub bo‘lishgan:

- a) oddiy odamlar (“lyudi”);
- b) shaharliklar “gradskie lyudi”, yani savdogarlar va hunarmandlar;
- v) xoloplar.

Oddiy odamlar toifasini jamoaviylikka asoslangan erkin dehqonlar bilan birga, knyazlarga tobe bo‘lgan, ularga nisbatan xizmatda bo‘lgan dehqonlar “smerdlar” (slvyancha “osmerdit”, yani egallab olish) deyilgan. Yer egasi bilan unga ishlash bo‘yicha shartnoma tuzgan smerdlar “ryadovichi” (“ryad”, yani kelishuv manosida) deb atalishgan. Shuningdek, boshqa yer egasidan uy hayvonlari, ish qurollari va jihozlarni qarzga olgan smerdlar “zakuplar” (“kupa”, yani qarzga sotib olish manosida) degan nom bilan atalganlar.

Shaharliklar “gorojane” (ushbu soʻzdan keyinchalik “grajdanin” iborasi kelib chiqqan) deb nomlanganlar.

Rossiya ijtimoiy hayotida ogʻir asorat qoldirgan ijtimoiy hodisa – bu xoloplikdir. Xoloplar rus jamiyatning eng quyi qismi, yani botqogʻini tashkil qilgan va mohiyatan qullarga yaqin boʻlgan mazkur ijtimoiy guruh oʻz navbatida ikki toifaga boʻlingan:

1) Harbiy asirlar “chelyad” (ruscha “chado”, yani xizmatkor manosiga ega boʻlishi mumkin, deb taxmin qilinadi) deb yuritilgan. Keyinchalik xoʻjayin uyidagi chorikorlar (krepostnoylar) ham shu soʻz bilan atalgan.

2) Qarzdor, yani toʻliq xoloplar (eskiruscha “xoluy”). Bunday xoloplikning manbai shunda boʻlganki, zakup, yani qarzini toʻlolmagan dehqon yashirin qochganida, oʻgʻirlik sodir qilganida, shartnomasiz xizmatda boʻlganida yoki qul ayolga uylanganida koʻpincha xolop darajasiga tushib qolgan. Natijada uning avlodi tugʻilganidan boshlab xolop boʻlib, bir umr bironing shaxsiy mulki sifatida yashagan. Umuman olganda, xoloplik azaldan Qadimgi Rusda huquqsiz aholi guruhini anglatgan [3].

Malumki, xoloplikni 1723-yilda rus imperatori Petr I bekor qilgan boʻlib, bu rus jamiyatining erkinlik tomon qoʻygan katta qadami edi, garchi krepostnoylik huquqi shundan keyin ham yana 138 yil, yani 1861-yilgacha saqlanib qolgan boʻlsada.

Agar rus siyosiy doiralari asosan bosqinchilik pozitsiyasida turgan boʻlsalar, dvoryan tabaqalarining harakatlari samoderjavie absolyutizmga va krepostnoychilikka qarshi qaratilgan edi. Bu avvalo 1840-yildan ilmiy jurnallar chop etilishi, 1865-yildan esa narodniklarning faoliyat boshlashida ayniqsa namoyon boʻldi. Albatta, rus ziyolilari tarkiban bir xil boʻlmay, gʻarbhilar va slavyanofillar orasida keskin tortishuvlar toʻxtamagan. Gʻarbhilar liberalizm va demokratik erkinliklar tarafdori boʻlsalar, slavyanofillar esa pravoslavie va jamoaviylikka asoslangan “alohida rivojlanish yoʻli” uchun kurash olib borardilar. Shularga qaramay, umumiy manoda rus intelligensiyasining koʻpchilik namoyondalari demokratizm, grajdanlik, taraqqiyparvar islohotlar, gumanitar talim va ijod vakillari edilar.

Ijtimoiy adolat gʻoyalari, xususan milliy ozodlik harakatlarini qoʻllab quvvatlash ularning koʻpchiligiga xos xususiyat edi. Ijtimoiy tanqid, milliy oʻlkalarning erkinligi masalalari ularga yot emasdi.

Rus inqiloblarigacha boʻlgan rus intelligensiyasi uchun umuminsoniy ideallar N.Berdyayev, M.Tugan-Baranovskiy, N.Buxarin tomonidan boshlab berilgan boʻlib, rus intelligensiyasining ijodiy, injener texnik, universitet, ilmiy akademik, maorif intelligensiyasi vujudga keldi. Aslida, rus intelligensiyasi turli kasbiy guruhlar vakillari boʻlishiga qaramay, umumiy maʼnoda ijodiy fikrlovchi, jamiyatda qadriyatlarini va gumanistik dunyoqarashni shakllantiruvchi, tarbiya, maorif va zamonaviy talimni ulugʻlovchi kishilar edilar. Shuningdek, tarixiy va madaniy xotirani saqlash, shu orqali avlodlarni bogʻlash, eng muhimi davr daʼvatlariga munosib javob qidiradigan ijodkorlar ijtimoiy guruhi boʻlgan.

Sovet hokimiyati oʻrnatilishi bilan “proletar” intelligensiya oldingi “burjua” rus intelligensiyasiga qarshi qoʻyila boshlandi, soʻng esa u sovet intelligensiyasi deb atala boshlandi. Qanday nomlanishidan qatʼiy nazar, ularning har biriga yuqorida sanab oʻtilgan xislatlar xos edi. Davr konʼyukturasiga moslashish ilinjida oʻz prinsiplariga xilof faoliyat yuritganlar ham boʻlgan, albatta. Ammo asl ziyoli rus qatlami hamisha oʻz soʻzini ayta olgan. Shuni ham alohida taʼkidlash zarurki, oʻzbek intelligensiyasining shakllanishi va tarkib topishida ham rus xalqining eng yaxshi jihatlarini oʻzida mujassam etgan rus va sovet intelligensiyasi sezilarli oʻrin tutgan. Xalqimizning Moskva, San-Peterburg, Qozon va boshqa shaharlarda oliy taʼlim olgan, ilmiy faoliyat olib borgan koʻplab vakillari ularning tasirida katta ilm va hayot maktabini oʻtashgan.

XULOSA

Bugungi kunda turkiy davlatlarning oʻzaro foydali integratsiyasi haqida gap ketar ekan, avvalo tarixdan saboq chiqarish haqida oʻylash lozim. Bunda tarixdan faqatgina negativ omillarni izlash emas, tanqidiy fikr asosida hamkorlik nuqtalarini topish muhimdir.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Великие географические открытия. <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/>
2. Гидденс Э. – Социология. – М.: Эдиториал УРСС, 1999. – С. 494-497.
3. Колибаба С. Холоп – этимология. [https:// proza.ru](https://proza.ru)> 2013/04/26.
4. Колониализм. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
5. Ленин В.И. Империализм как высшая стадия капитализма. // ПСС. – Т. 27. – С. 425.
6. Макиавелли Никколо. Государь; История Флоренции. Рассуждения о первой декаде Тита Ливия / Никколо Макиавелли; (перевод). – М.: Эксмо, 2023. – С.7-17.
7. ООН и современные международные отношения // Отв.ред. Г.П.Жуков. – М., 1986.
8. Робертс Дж. М., Уэстад О.А. Мировая история / Пер с англ. С.А.Белоусова. – М.: Центрполиграф, 2018. – 1247 с.
9. Системная история международных отношений в четырех томах. 1918-1991. // Под.ред. А.Д. Ботурова. – М.: «Московский рабочий», 2000.
10. Xolbekov A.J., Ibragimov M.B. Siyosiy va xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi. O`quv qo`llanma. – Т.: ”GRAND KONDOR PRINT”, 2025. – 232 б.
11. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик / М.Қирғизбоев; Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети. – Тошкент: Шарқ, 2024. – 504 б.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000